





HUDUDGAZTA'MINOT

AKSIYADORLIK JAMIYATI

**TABIIY GAZNI ULGURJI
ISTE'MOLCHILARGA
YETKAZIB BERISH VA QABUL QILISH
SHARTNOMASI**

№ 178/1-son

Navoiy 2022 yil

THE HISTORY OF THE

INDIAN NATIONS OF THE
NORTH AMERICAN CONTINENT

FROM THE FIRST DISCOVERY
TO THE PRESENT TIME

BY
J. H. COOPER

NEW YORK: PUBLISHED BY
G. P. PUTNAM'S SONS

1897

Tabiiy gazni uigurji iste'molchilarga yetkazib berish va qabul qilish

SHARTNOMASI

2022 yil "___" yanvar

№ 178/1-son

Navoiy sh.

Nizom asosida faoliyat yurituvchi Nurota tumani Madaniyat bo'limi (keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb ataladi), rahbari A.Karimov bir tomondan hamda Nizom va 202_ yil "___" berilgan ___-sonli ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi "Hududgazta'minot" AJ "Hududgaz Navoiy" gazta'minoti filiali (keyingi o'rinlarda "Yetkazib beruvchi" deb ataladi), rahbari M.A.Normatov ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnomani tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Yetkazib beruvchi o'z zimmasiga gaz tarmoqlari orqali Iste'molchining kelishilgan buyurtmanomasi bo'yicha tabiiy gaz (keyinlarda o'rinlarda gaz deb ataladi) etkazib berish majburiyatini oladi. Iste'molchi esa o'z zimmasiga ushbu shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan hajmda gazni qabul qilish majburiyatini oladi hamda to'lovlarni belgilangan narx bo'yicha o'z muddatida amalga oshiradi.

1.2. Yetkazib beruvchi gazni ushbu shartnomaga va gazlashtirish loyihisiga muvofiq gazdan foydalanish uchun standartlashtirilgan va sertifikatga ega gaz qurilmalari, shuningdek, elektron gazni hisoblash priborlari (keyingi o'rinlarda hisoblash priborlari deb ataladi) mavjud bo'lganda etkazib beradi.

1.3. Iste'molchi Etkazib beruvchiga tasdiqlangan me'yorlarga (Tabiiy gazdan foydalanish qoidalarining 6-bandiga) asosan ishlab chiqariladigan mahsulotga (yoki ko'rsatilayotgan xizmat) nisbatan kelgusi yilda gazga asoslangan chtiyojni taqdim etadi.

Iste'molchi joriy yilning 15 iyul kuniga qadar kelgusi yilda iste'mol qilinishi taxmin qilinayotgan gaz hajmi bo'yicha buyurtma beradi.

1.4. Iste'molchi bilan kelishilgan buyurtma bo'yicha yetkazib beriladigan gaz hajmi texnik shartlarda belgilangan bosim va hajmda 2022 yilda 9090 kub.m, narxi 5 999 400 so'mni tashkil qiladi, jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

I chorak	9090	Ming kub.m,	yanvar	3030,	fevral	3030,	mart	3030.
II chorak	_____	Ming kub.m,	aprel	_____	may	_____	iyun	_____
III chorak	_____	Ming kub.m,	iyul	_____	avgust	_____	sentyabr	_____
IV chorak	_____	Ming kub.m,	oktyabr	_____	noyabr	_____	dekabr	_____

Yetkazib beruvchi tomondan xizmatlarni to'liq hajmda ko'rsatish uchun magistral va gaz taqsimoti tarmoqlarining ishlashi izdan chiqqan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrdaqi 277-son qarorida qayd etilgan strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega Iste'molchilarga 2022-yilda zarur bo'lgan tabiiy gazning minimal hajmi 9090 kub metrni, shu jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagini tashkil qiladi:

I chorak	9090	Min gkub.m,	yanvar	3030,	fevral	3030,	mart	3030.
II chorak	_____	Min gkub.m,	aprel	_____	may	_____	iyun	_____
III chorak	_____	Ming kub.m,	iyul	_____	avgust	_____	sentyabr	_____
IV chorak	_____	Ming kub.m,	oktyabr	_____	noyabr	_____	dekabr	_____

1.5. Agar, Iste'molchi oylar bo'yicha bo'lingan buyurtmanomani taqdim etmasa, Etkazib beruvchi tomondan chorak uchun ajratilgan tabiiy gaz hajmi oylar bo'yicha bir xil miqdorda taqsimlanadi.

1.6. Yetkazib beruvchi Iste'molchi buyurtmalarini tabiiy gaz resurslarining va gazni taqsimlashning tasdiqlangan balansiga muvofiq ajratilgan hajmlar doirasida qayta ko'rib chiqishi mumkin. Iste'molchi tomondan navbatdagi oy (chorak) uchun ko'rsatilgan tabiiy gaz hajmlari o'zgarishi bo'yicha 10 kun oldin gaz ta'minoti tashkilotiga xabar bergan taqdirda, bunday holat ortiqcha olingan gaz miqdori deb hisoblanmaydi.

II. GAZNI YETKAZIB BERISH SHARTLARI

2.1. Gaz ushbu shartnomada qayd etilgan (1.4-band) muddatlarda va hajmlarda hamda GOST 5542-2014 (Sanoat va kommunal foydalanish uchun tabiiy yonuvchi gazlar) ga muvofiq tarzdaqi tabiiy gazni etkazib beriladi.

2.2. Iste'molchi Etkazib beruvchidan ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlariga asosan joriy oy uchun gaz iste'molining sutkalik me'yor doirasida gaz qabul qilib oladi, shuningdek, oy oxirida tuzilgan gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini imzolaydi.

2.3. Etkazib beruvchi Iste'molchiga 24 soat ichida gaz etkazib berish va qabul qilish tartibi va shartlari o'zgartirilishi to'g'risida barcha usullar orqali Iste'molchini xabardor qilishi shart.

Etkazib beruvchining avariya-dispatcher xizmatlari telefon raqamlari:

79-523-19-04

Iste'molchi manzili va telefon raqami:

79-523-16-55

2.4. Yetkazib beruvchi Iste'molchini gaz yetkazib berish qisqartirilishiga qadar kamida 24 soat avval bu haqida xabardor qilishi shart, magistral gaz quvurlarida yuz bergan avariya holatlari bundan mustasno. Iste'molchi xabardor qilingandan keyin gaz yetkazib berish darhol qisqartiriladi yoki to'xtatiladi.

2.5. Magistral va taqsimlovchi gaz quvurlarining texnologik ish rejimlari buzilganda, shuningdek, kuz-qish mavsumida ijtimoiy soha ob'ektlarini va aholi istemolchilarini bir maromda tabiiy gaz bilan ta'minlash maqsadida Etkazib beruvchi Iste'molchini ogohlantirgan holda gaz etkazib berishni cheklash yoki to'xtatib qo'yish huquqiga ega, Iste'molchi esa zaxira yoqilg'i turidan foydalanishga o'tadi.

2.6. Iste'molchi Etkazib beruvchi bilan gaz etkazib berish-qabul qilish doirasida tezkor ma'lumotlarni muntazam almashishni ta'minlash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

2.7. Iste'molchi zaxira yoqilg'i turidan foydalanishni ko'zda tutishi va uni etarli miqdorda (3 oydan kam bo'lmagan muddatga) shakllantirishi shart. Iste'molchi Etkazib beruvchining asoslangan talabi bilan tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga muvofiq zaxira yoqilg'iga o'tishi va gazdan foydalanishni to'xtatishi lozim. Gaz yetkazib berishning to'xtatilishi tegishli dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi.

2.8. Iste'molchi o'ziga tegishli bo'lgan gaz tarmoqlari va ularda o'rnatilgan uskunalar, GTP (gaz taqsimlash punkti), gazdan foydalanish uskunalaridan soz holda foydalanish, ularga xizmat ko'rsatish hamda saqlash uchun javobgar hisoblanadi.

2.9. Iste'molchining qo'shimcha gazdan foydalanish uskunalari o'rnatilishi, rekonstruksiya qilinishi yoki ta'mirlanishi oqibatida gaz sarflash hajmi o'zgarishiga olib kelgan holdarda, Iste'molchi Etkazib beruvchidan qo'shimcha gazdan foydalanish uskunalarini o'rnatish yoki rekonstruksiya qilishga texnik shartlarni olishi shart. Gaz tarmoqlariga ulanish Tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.10. Iste'molchi yoki Yetkazib beruvchining to'lov rekvizitlari o'zgartirilgan holatlarda ular zudlik bilan bir-birini bu haqida xabardor qilishi shart.

2.11. Tabiiy gazni qazib olish, qayta ishlash, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish rejimining yagona uzluksiz texnologik jarayonini hisobga olib, tabiiy gazni ishlab chiqaruvchi va Yetkazib beruvchining talablarini bajarish Iste'molchilar uchun majburiy hisoblanadi.

III. YETKAZIB BERILGAN GAZNI HISOBGA OLISHNI TASHKIL ETISHI

3.1. Gazni hisobga olmasdan etkazib berishga yo'l qo'yilmaydi.

3.2. Etkazib berilgan gaz miqdori gaz tarmoqlari bo'linishi chegarasida o'rnatilgan hisoblash priborlari ko'rsatkichlari yoki o'lchash kompleksi bo'yicha aniqlanadi hamda har ikki tomon imzolaydigan gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Gaz tarmog'i bo'linishi chegarasi (Iste'molchi balansida bo'lgan gaz tarmog'ining boshlanishi hisoblanib) Yetkazib beruvchi va Iste'molchi o'rtasidagi, tegishligi bo'yicha aniqlanadigan gaz tarmog'i bo'linishi nuqtasi hisoblanadi va unda hisoblash priborlari o'rnatilishi shart.

3.3. Birlik miqdori standart sharoitda 1 m³ gaz olindi: xarorat 20° C, bosimi 101,325 kPa (760 mmHg) (GOST 2939-63 1.1-bandiga asosan). Gaz hajmi gazning fizik-kimyoviy parametrlari (standart sharoitda, azot va karbonat anhidrid) qiymatlari bo'yicha tuzatiladi.

Gaz miqdori "O'zstandart" agentligining me'yoriy-xuquqiy hujjatlari talablariga muvofiq gaz miqdorini standart sharoitga avtomatik ravishda keltiradigan gazni hisoblash priborlari yordamida aniqlanadi.

3.4. Yetkazib beruvchining yoki Iste'molchining balansida bo'lgan gaz o'lchash pribori va/yoki o'lchov kompleksi uning mulki hisoblanadi.

3.5. Iste'molchi tomonidan gaz o'lchash pribori va/yoki o'lchov kompleksi tanlovi tegishli qoidalar va me'yorlarga muvofiq amalga oshiriladi va Etkazib beruvchi bilan kelishiladi. Iste'molchi tomonidan gaz o'lchash pribori va/yoki o'lchov kompleksi gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizim (TGINAT-ASKUG) lariga ulanishi lozim.

3.6. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov kompleksini o'rnatish va ishlatish amaldagi qoidalar va me'yorlarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

3.7. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov kompleksi egasi uni ishlatish davomida O'z DST 8.030:2008 "Yoqilg'i va energiya. Hisobga qo'yiladigan umumiy talablar", O'z DST 8.031:2008 "Yoqilg'i va energiya. O'lchash priborlari bilan jixozlash va ularni ishlatish" davlat standartlari talablariga, shuningdek o'lchash priborlari ishlab chiqaruvchining talablariga rioya qilish.

3.8. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslarining metrologik va texnik tavsiflari amaldagi me'yorlar va qoidalarga muvofiq bo'lishi kerak.

3.9. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslari "O'zstandart" agentligining jony qiyoslov ko'rigidan o'tkazilgan sertifikatini va/yoki metrologik attestatsiyasiga ega bo'lishi kerak. Gaz o'lchash priborlari va/yoki komplekslarining qiyoslov ko'rikidan va/yoki metrologik attestatsiyasidan o'tish davrini

Газ о'лчаш приборлари ва/ёки о'лчов комплекслари egasi газ о'лчаш приборларини qiyoslov ko'rigidan o'tkazish va/ёки o'lchov komplekslarini (va uning tarkibiy qismlarini) "O'zstandart" agentligida metrologik attestatsiyadan o'tkazishning o'z vaqtida bajarilishi uchun mas'uldir.

3.10. Rejalashtirilgan ishlarning bir qismi sifatida (qiyoslov ko'rigi/kalibrash, torayish moslamasini almashtirish, ta'mirlash) gaz o'lchash приборларини va/ёки o'lchov kompleksining qismlarini echish va o'matish texnik va/ёки ishlab chiqarish xotiyojlari asosida kelishuv bo'yicha va ikkala tomonning vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Газ о'лчаш приборларини va/ёки o'lchov kompleksining qismlarini echish, o'matish, uni ishlab chiqaruvchining talablariga va amaldagi me'yorlar va qoidalarga muvofiq egasi (yoki uning servis xizmat ko'rsatuvchi vakili) tomonidan amalga oshiriladi.

Yetkazib beruvchining vakilini gaz o'lchash приборларини va/ёки o'lchov kompleksining egasi chaqiradi.

3.11. Gaz o'lchash приборларини va/ёки o'lchov komplekslarini modernizatsiya qilish, gaz o'lchash приборларини almashtirish, gazni o'lchashning boshqa usullarini tanlash masalalari Etkazib beruvchi bilan kelishiladi.

3.12. Gazning fizik-kimyoviy parametrlari (standart sharoitdagi zichlik, azot va karbonat angidrid) gaz o'lchash priborining konfiguratsiyasiga kiritiladi.

Газ о'лчаш priborining egasi gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida gaz o'lchash priborini konfiguratsiyasiga kiritishni ta'minlaydi. Etkazib beruvchi iste'molchiga gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida etkazib berilishini ta'minlaydi.

3.13. Yetkazib beruvchi o'zining tamg'alarini gaz o'lchash приборларини va/ёки o'lchash kompleksining gaz hajmini o'lchashga ta'sir qiladigan qismlariga iste'molchi ishtirokida o'matadi va tegishli dalolatnoma tuziladi. O'matilgan tamg'alarni butilgacha iste'molchi javobgardir.

3.14. Yetkazib beruvchi iste'molchining gaz o'lchash приборларини va/ёки o'lchov komplekslari va ularning tarkibiy qismlarining to'g'ri ishlashini kuzatish xuquqiga ega. SHu bilan birga, iste'molchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Etkazib beruvchi vakillarining o'lchash приборларини va/ёки o'lchash komplekslariga to'siqsiz kirishini ta'minlaydi.

3.15. O'z DST 8.586.(1-5)-2005 bo'yicha o'lchov kompleksi va o'lchash приборларини ishida g'ayritabiiy holatlar yuzaga kelgan taqdirda O'z DST 8.064:2017 bo'yicha gazning miqdori hisoblanadi (korrektirovka). O'lchash qurilmasi va/ёки o'lchash kompleksi faoliyatiga ruxsatsiz aralashish holatlari bundan mustasno.

3.16. Olingan gaz uchun hisob-kitob, quyidagi hollarda tamg'alanmagan gazdan foydalanish uskunasi 24 soat davomida ishlab turishi hisob-kitobidan amalga oshiriladi:

a) Gazni hisobga olmagan holda gaz iste'moli - gazni hisoblash pribori va gazni sarf qilish normasi bo'lmaganda, gazni hisoblash priborini chetlab o'tgan xolda iste'mol qilish (noqonuniy baypas liniyalari ulanganda) oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan aniqlangan kungacha, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga;

b) Hisobga olish priborini ulash tartibi va sxemasi o'zgartirilganda - oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga;

v) Hisobga olish pribori buzilganda (hisobga olish pribori buzilganligini tasdiqlovchi xujjatlar mavjud bo'lganda) - shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlarini inobatga olgan xolda bir hisob-kitob davridan ko'p bo'lmagan vaqtga;

g) hisobga olish pribori mavjud bo'lmaganda - qiyoslov ko'rigidan o'tkazish uchun echilganda - hisobga olish pribori echilgan kundan "O'zstandart" agentligidan qiyoslovdan o'tkazilib, sertifikat ohni joyiga o'matilgan kungacha bo'lgan vaqtga;

d) hisobga olish priborini qiyoslov ko'rigidan o'tkazish va/ёки o'lchov kompleksini metrologik attestatsiyadan o'tkazish muddati tugaganda - qiyoslov ko'rigidan metrologik attestatsiya o'tkazish muddati tugagan kundan qiyoslov ko'rigidan yoki metrologik attestatsiya o'tkazish uchun echilgan kungacha bo'lgan vaqtga;

e) hisobga olish pribori yoki o'lchov kompleksining qismlariga o'matilgan tamg'alarning butligi buzilganda - oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab, lekin bir hisob-kitob davridan ko'p bo'lmagan vaqtga;

j) hisobga olish priborini o'zboshimchalik echib qo'yilganda - oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha bo'lgan vaqtga.

z) gazni tarqatish tarmoqlarining texnologik rejimini buzadigan gaz quvurlarida yoki GTPlarida asbob-uskunalar o'matilganda - ohirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha bo'lgan vaqtga;

i) Gaz hisoblash uskunasi konfiguratsiyalariga noqonuniy tarzda tashqi ta'sir ko'rsatgan holda tabiiy gazni iste'mol qilish holatlari aniqlanganda - tashqi ta'sir ko'rsatilgan kundan boshlab (agar aralashuv kunini va faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lsa), biroq da'vo muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga;

k) hisobga olish priborining xotirasida saqlanadigan arxiv ma'lumotlarini yo'qotish, gaz o'lchashni avtomatlashtirilgan tizimidan hisobot oyida ma'lumotlar olish imkoni bo'lmaganda yoki etkazib beruvchining operativ jurnallaridan olingan ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda. (Hisob-kitob uchun TGHNAT (ASKUG) tizimi jony qilingan iste'molchilarda hisobot davri uchun arxiv ma'lumotlari mavjud bo'lmagan hollarda iste'mol qilizing tabiiy gaz hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar TGHNAT tizimida qayd etilgan ma'lumotlardan olinadi);

l) gaz iste'moli hajmlari hisobga olish priborining ruxsat etilgan maksimal o'lchov chegarasidan ortiqcha bo'lganda, plombalanmagan gaz jihozlaridan foydalanilgan gaz uchun hisob-kitoblar oxirgi xatlovdan o'tkazish

dalolatnomasi tuzilgan kundan, xatlov dalolatnomasi mavjud bo'lmaganda esa – gaz ta'minoti tashkiloti vakili tomonidan ohirgi marta borib ko'rilgan kundan amalga oshiriladi;

m) gazlashtirish xujjatlarini rasmiylashtirmasdan iste'molchi tomonidan qo'shimcha gaz qurilmasi o'rnatish holati aniqlanganda (qo'shimcha gaz anjomlarni o'rnatib olib foydalanayotganlik fakti bo'yicha asoslantiruvchi hujjatlar mavjud bo'lganida) -bir hisob-kitob davriga;

3.18. Iste'molchining hisobga olish pribori gaz hajmini pastki chegarasi ostida sarflaganda, gaz hajmi hisobga olish pribori va/yoki o'lchov kompleksining me'yoriy-texnik xujjatlarida ko'rsatilgan o'lchovning pastki chegarasida olinadi.

3.19. Etkazib beruvchi tomonidan etkazib beriladigan gaz hajmining ishonchligiga ta'sir ko'rsatuvchi o'lchov komplekslari va hisoblash priborlarining ishlashi buzilgan holatlar aniqlanganda, Etkazib beruvchi "O'zstandart" agentligi bo'limlarida o'lchov komplekslari va gazni hisoblash priborlarini ekspertizadan o'tkazishni talab qilish huquqiga ega.

Agar o'lchov komplekslari va hisoblash priborlari nosoz bo'lsa, ekspertizadan o'tkazganlik uchun to'lovlar Iste'molchi tomonidan, soz holatda bo'lganda esa –ekspertiza o'tkazilishi talab qilgan Taraf tomonidan amalga oshiriladi.

3.20. Agar hisobga olish pribori ishdan chiqqandayoki hisobga olish priboridan gaz sizib chiqish holatlari aniqlangan taqdirda Iste'molchi 24 soat ichida Etkazib beruvchiga bu haqda xabar berishi shart. SHuningdek korxonadagi gaz ishlatadigan asbob-uskunalarni ishlash grafigini tuzishi va ishlamaydigan gaz asbob-uskunalarni Etkazib beruvchi bilan birgalikda o'chirib tamg'alanishini ta'minlashi shart.

3.21. Hisobga olish priborlarida gaz sizib chiqish xolati aniqlangan taqdirda qayta hisob-kitoblari ohirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrda amalga oshiriladi. (O'z DST 8.586 ga ko'ra gazni aniqlash tizimlari germetik holatda bo'lishi kerak).

IV. ETKAZIB BERILGAN GAZ UCHUN HISOB-KITOBNI

AMALGA OSHIRISH

4.1. Iste'molchi mazkur shartnoma asosida etkazib berilgan gaz uchun to'lovni amalga oshirishi shart.

4.2. Gaz uchun narxlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligitomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

4.3. Iste'molchi hisob-kitob qilish davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin Etkazib beruvchining hisob raqamiga ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlarida ko'rsatilgan oylik gaz hajmi qiymatining 100 foiz summasini oldindan to'laydi.

Hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin hisob-kitobni 50 foiz oldindan haq to'lash asosida amalga oshirish xohishini bildirgan iste'molchilar hisob-kitob amalga oshiriladigan davmi ko'rsatib etkazib berilgan tabiiy gaz uchun 50 foiz oldindan haq to'lash asosida hisob-kitob qilish to'g'risida Etkazib beruvchiga bildirgi tartibida murojaat qilishga haqlidir. Bunday holatlarda iste'molchilar hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin gaz ta'minoti tashkilotining hisob raqamiga tabiiy gaz etkazib berishga tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan oylik tabiiy gaz hajmi qiymati summasining 50 foizi miqdorida oldindan haq to'lashlari shart. Amalda iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmi uchun yakuniy hisob-kitob hisobot oyining oxirigacha amalga oshiriladi.

4.4. Iste'molchiga gaz oldindan to'lovsiz etkazib berilmaydi.

4.5. Oldindan to'lov amalga oshirilmagan taqdirda, Iste'molchiga gaz etkazib berilmaydi (strategik korxonalar va ijtimoiy ahamiyatga ega iste'molchilar bundan mustasno).

4.6. Iste'molchi har oyning 10 sanasiga qadar avvalgi oyda iste'mol qilingan gaz uchun yakuniy hisob-kitobni amalga oshirishi kerak.

4.7. Strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega Iste'molchilar hisob-kitob qilish oyi tugagandan keyin 30 kun mobaynida olingan gaz uchun yakuniy hisob-kitobni amalga oshiradilar.

4.8. Tabiiy gazdan foydalanishda Iste'molchining aybi bilan tabiiy gaz etkazib berishga shartnomada ko'rsatilganidan hamdan kam foydalanilgan taqdirda, avans tarzida to'langan mablag'lar qaytarilmaydi, ko'rsatib o'tilgan mablag'lar esa kelgusida gazdan foydalanishda hisobga olinadi.

4.9. Iste'molchi tomonidan tabiiy gaz etkazib berish uchun tuzilgan shartnomada belgilanganidan ko'p hajmda va gaz ta'minoti tashkiloti bilan oldindan kelishilmasdan gaz olingan taqdirda, Iste'molchidan shartnomadagi hajmlardan ortiqcha olingan tabiiy gaz qiymatiga nisbatan 1.4 koeffitsient bilan oshirilgan to'lov undiriladi.

Bunda, belgilangan tartibda hisoblash priborini almashtirish, ta'mirlash, xizmat ko'rsatish, tekshirish va sozligini monitoring qilish uchun echib olish, shuningdek, Iste'molchiga aloqador bo'lmagan turli hil (elektr ta'minoti nosozligi, chaqmoq, qisqa tutashuv va x.k.)dagi texnik nosozliklar aniqlanganligi sababli iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmini o'rnatilgan gaz asbob uskunalarini to'liq quvvati bo'yicha hisob-kitob qilinishi natijasida shartnomadagi hajmlardan ortiq hajmlarni tashkil qilgan holatlar bundan mustasno.

4.10. Tabiiy gaz uchun Iste'molchining qarzi mavjud bo'lgan taqdirda, uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari Iste'molchini xabardor qilgan holda qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi sifatida hisobga olinmaydi.

4.11. SHartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda etkazib berilgan gaz qiymati o'z vaqtda to'lanmaganda, Iste'molchi muddati o'tgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasing 0,4 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan to'lov summasing 50foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

4.12. Hisob-kitob oyida etkazib berilgan tabiiy gaz hajmi Etkazib beruvchi vakillari tomonidan tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priboridan ko'rsatkichlarni yozib olish (TGHNATga ulangan, shuningdek, tabiiy gazni iste'mol qilishni hisobga olish priborlariga ega bo'lmagan va belgilangan me'yorlar bo'yicha hisob-kitob qiladigan iste'molchilar bundan mustasno) asosida, keyinchalik yozib olingan ko'rsatkichlar Fossa tizimiga kiritish, shuningdek, iste'molchilar tomonidan tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini interaktiv xizmatlar vositalaridan foydalangan holdakiritish orqali aniqlanadi

4.13. SHartnomaning 4.12-bandiga asosan ko'rsatkich olinganidan so'ng keyingi oyning 5 kuniga qadar Etkazib beruvchi tomonidan hisob-kitob oyi uchun gaz etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Rasmiylashtirilgan gaz etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan iste'molchiga elektron hisobvaraqa-faktura yuboriladi.

4.14. Etkazib beruvchi va Iste'molchi o'rtasidagi hisob-kitoblarning haqqoniyligini ta'minlash uchun hisobot davrida gazni etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi Iste'molchida quyidagi texnik hujjatlar mavjud bo'lganda rasmiylashtiriladi:

a) gazni hisoblash pribori hotirasidan hisobot davri uchun olingan (ko'chirma) arxiv ma'lumotlari;

b) Iste'molchiga taqdim etiladigan, Iste'molchining bo'linish chegarasigacha bo'lgan joydagi gaz tarmoqlari va GTQlardagi texnologik yo'qotishlarning hajmi to'g'risidagi dalolatnomaning mavjudligi. Bunda Iste'molchi balansida bo'lgan gaz tarmoqlari va GTQdagi texnologik yo'qotishlar Iste'molchi hisobga olib boriladi.

4.15. Iste'molchi oyning 7 kundan kechiktirmasdan Etkazib beruvchidan hisob-kitob oyi uchun gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini qabul qilib oladi, imzolaydi va bir nusxasini Etkazib beruvchiga jo'natadi. Rasmiylashtirilgan gaz etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan elektron hisobvaraqa-fakturani qabul qiladi.

4.16. Tabiiy gazni etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasini imzolamaslik yoki uni e'tirozlar bilan imzolash Iste'molchini ko'rsatib o'tilgan tabiiy gaz hajmlari uchun to'lovlardan ozod qilmaydi. Uzatilgan yoki qabul qilingan gaz miqdorini aniqlashdan norozi bo'lgan tomon dalolatnomada norozilik sabablarini majburiy aks ettirish yo'li bilan hisob-kitob qilish oyi tugagandan keyin 10-kungacha boshqa tomonga to'g'rida ma'lum qilib, so'ng dalolatnomaning bir nusxasini Etkazib beruvchi vakiliga taqdim qiladi. Ushbu masalani o'zaro hal etish imkoniyati bo'lmaganda, kelishmovchilik sabablari belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi kerak.

4.17. Iste'molchidan debitor qarzlarni undirish Etkazib beruvchi tomonidan qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4.18. Gaz uzib qo'yilganidan so'ng o'zboshimchalik bilan qayta ulanganida, iste'mol qilingan gaz hajmi va uning qiymati gaz uzib qo'yilgan kundan boshlab, ulangan gazdan foydalanish uskunasing bir sutkada 24 soat ichida to'liq quvvat bilan ishlab turishi hisobidan aniqlanadi.

4.19. Gaz uchun amaldagi tariflar (narxlar) o'zgartirganda, Etkazib beruvchi bu haqidagi axborotni o'n besh kun oldin ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qiladi. Gaz uchun tariflar o'zgariganda, mazkur shartnoma o'z kuchida qoladi, iste'mol qilingan gaz uchun to'lov esa yangi tarif asosida, u qonunda belgilangan tartibda kuchga kirganidan so'ng amalga oshiriladi. Bunda iste'molchi tabiiy gazning avans tariqasida to'langan hajmi uchun to'lov kundan boshlab ko'pi bilan keyingi 1 oy qo'shimcha to'lov to'lashdan ozod qilinadi.

V. HUQUQBUZARLIKLAR VA GAZDAN NOQONUNIY

FOYDALANISH UCHUN JAVOBGARLIK

5.1. Gazdan foydalanishda Iste'molchi tomonidan mazkur shartnomaning 3.17 va 4.18.-bandda ko'rsatib o'tilgan huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilishi, Etkazib beruvchi va Iste'molchi vakillari tomonidan imzolangan va ikki nusxada tuziladigan dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

5.2. Ushbu shartnomaning 5.1-bandiga asosan rasmiylashtirilgan dalolatnomaga muvofiq Iste'molchidan, foydalangan gaz hajmi qiymati (amaldagi tariflar bo'yicha) undirib olinadi.

5.3. Bunda mazkur shartnomaning 5.2-bandida ko'rsatilgan holatlarda gaz hajmi qiymatining undirilishi Iste'molchini qonunchilikda belgilangan javobgarlikdan ozod qilmaydi.

VI. TARMOQDAN UZIB QO'YISH VA QAYTA

ULANISH TARTIBI

6.1. Iste'molchida quyidagi holatlarning mavjudligi hamda ushbu holatlarning bartaraf etilguniga qadar gaz tarmoqlaridan uzib qo'yiladi:

- shartnomaviy majburiyatlar bajarilmaganda;

- Etkazib beruvchi vakillarini gazdan foydalanish uskunalari va hisobga olish quurilmalarininazoratdan o'tkazishga yo'l qo'yilmaganda.

- Foydalanilgan gaz uchun hisob-kitob o'z vaqtda amalga oshirilmaganligi natijasida qarzdorlik mavjud bo'lganda;

- Shartnomada belgilangan buyurtmalarga etarli miqdorda oldindan to'lovlar amalga oshirilmaganda;
 - Yetkazib beruvchini va "O'zneftgazinspeksiya"ning ko'rsatmalari bajarilmaganda;
 - Hisoblash priborlariga qasdand zarar etkazilganda, pribor ko'rsatgichlarini o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga to'sqinlik qiluvchi xatti-harakatlar amalga oshirilgan holatlarda;
 - Gazni hisobga olish priborlariga tashqi ta'sir ko'rsatishga harakat qilish;
 - Gazdan foydalanish qoidalariga zid ravishda gaz tarmoqlariga noqonuniy ulanish yoki boshqa qoidabuzarliklar yohud gazni talon-taroj qilish holatlari aniqlangandi;
- Bunda Yetkazib beruvchi gaz ta'minotining o'chirilishi natijasida etkazilgan moddiy zarar yoki boy berilgan foyda uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi

6.2. Tarmoqqa qayta ulanishda amaldagi qonunchilikka muvofiq Iste'molchidan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida haq undiriladi SHartnomaning 13.1-bandida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

6.3. Gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizim (TGHNAT) lariga ulangan iste'molchilarni masofadan qayta ulash uchun haq undirilmaydi.

VII. TARAFLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI.

7.1. Etkazib beruvchi quyidagilarga majbur:

- o'ziga qarashli bo'lgan gaz tarmoqlarini soz holatda saqlash va ularni o'z hisobidan ta'mirlash-tiklash;
- o'z gaz tarmoqlarining texnik holatini va ularda ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash uchun davriy ko'zdan kechirish;
- tabiiy gaz etkazib berish qisqargan yoki to'xtagan taqdirda bu to'g'rida Iste'molchilarni xabardor qilish;
- gaz hisoblash uskunalaridan olingan arxiv ma'lumotlarni, elektron ma'lumotlarning barcha parametrlarini kamida uch yil mobayimda o'zida saqlanishini ta'minlash;
- shartnomaning 3.17 va 4.18-bandlariga ko'rsatilgan holatlar sodir etilganligi va ushbu holatlarni bartaraf etilguniga qadar tabiiy gaz ta'minotini qo'shimcha ogohlantirishsiz tarmoqdan o'chirish;
- tabiiy gazning ruxsatsiz iste'mol qilinganligi, gaz tarmoqlari moddiy boyliklarining talon-taroj qilinishi to'g'risida huquqni muhofaza qilish organlarini xabardor qilish;
- Iste'molchiga gaz etkazib berish shartnomasida kelishilgan shartlar asosida gazni etkazib berish;
- qonunda nazarda tutilgan tartibda monopoliyaga qarshi davlat organining taqdimnomasiga asosan shartnomaga o'zgartirishlar kiritish;
- Etkazib beruvchi va vakolatli davlat organlarining majburiy ko'rsatmalarini bajarish;
- texnik xizmat ko'rsatish shartnomalariga muvofiq iste'molchilarning ichki gaz tarmoqlari, gazdan foydalanuvchi uskunalarini texnik taftishdan o'tkazish va ularga profilaktika xizmat ko'rsatish;
- tabiiy gaz sizib chiqishida — darhol;
- ovqat tayyorlash uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida — bir kun davomida;
- isitish mavsumida isitish uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida — bir kun davomida;
- issiq suv va isitish uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida (isitish mavsumidan tashqari vaqtda) — ikki kun davomida;
- Gazdan foydalanish uskunalarini 5 sutka muddat ichida almashtirish;

Etkazib beruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7.2. Etkazib beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- texnik zaruratga ko'ra, Iste'molchini belgilangan tartibda xabardor qilgan holda, tabiiy gazni etkazib berishni qisqartirish yoki to'xtatish;
 - gaz ta'minoti tarmoqlariga ruxsatsiz ulanish holatlari aniqlanganda ularni belgilangan tartibda gaz tarmog'idan uzib qo'yish;
 - Iste'molchilardan tabiiy gazdan foydalanish qoidalarini va gazni etkazib berish shartnomasi talablariga rioya etishni talab qilish;
 - tabiiy gazni etkazib berish shartnomasini yro qilishdan qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama voz kechish;
 - gaz tarmoqlarida avariyaning oldini olish yoki bartaraf etish yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan choralarini ko'rish zarurati yuzaga kelganda, Iste'molchi bilan kelishmasdan va uni ogohlantirmasdan hamda zudlik bilan xabardor qilgan holda, tabiiy gazni etkazib berishni to'xtatish yoki cheklashi;
 - ushbu shartnomada nazarda tutilgan xolatlarda, aniqlangan qoidabuzarliklar bartaraf etilguniga qadar avvaldan ogohlantirilmagan holda gaz etkazib berishni to'xtatish.
 - tabiiy gaz etkazib berish shartnomasini bir tomonlama bekor qilish.
- 7.3. Iste'molchi quyidagilarga majbur:
- Hisobot oyida tabiiy gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini va hisob-varaqaasini rasmiylashtirish uchun har oyning 5-sanasisigacha Etkazib beruvchiga elektron gaz hisobdonini arxiv ma'lumotlari (raspechatka) yoki gazni hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini taqdim etish.

- Gazdan oqilona va tejankorlik bilan foydalanish;
 - Gaz xo'jaligi gaz quvurlari va uskunalari texnikjihatdan soz holatda saqlash;
 - Gaz tarmoqlarida yoki gazdan foydalanish uskunasi vujudga kelgan tabiiy gaz sizib chiqishi holati haqida gaz ta'minoti tashkiloti dispetcherlik xizmatlarini zudlik bilan xabardor qilish;
 - O'zining gaz tarmoqlari daxlsizligini ta'minlash va ehtimoli bo'lgan ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash maqsadida ularni va ulardagi uskunalarni muntazam ravishda ko'zdan kechirib chiqish;
 - Gaz ta'minoti tashkilotlari gaz tarmoqlariga sertifikatlanmagan, gazlashtirish loyihasiga (LTH) muvofiq bo'lmagan gazdan foydalanish uskunasi ulanishiga yo'l qo'ymaslik;
 - Gaz etkazib beruvchi vakillari va "O'zneftgazspeksiya" xodimlarining (tegishli guvohnoma ko'rsatilgan taqdirda) tabiiy gazni iste'mol qilishni hisobga olish priborlarini va yoki gazdan foydalanish uskunasi kunning istalgan vaqtda erkin ko'zdan kechirishini ta'minlash;
 - Gazdan foydalanish uskunasi noozliklarni (bunday turdagi ishlarni bajarish huquqiga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan brigadalar yoki xodim yordamida) bartaraf etish;
 - Tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga to'sqinlik qiluvchi harakatlarni amalga oshirmaslik, ularning qasddan buzilishiga yo'l qo'ymaslik va o'rnatilgan tamg'alarining butunligini ta'minlash;
 - Tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ishidagi nosozlik aniqlangan taqdirda, gaz ta'minoti tashkiloti o'zi uchun qulay shaklda darhol xabardor qilish.
 - Gaz tarmog'i bo'linishi chegarasida tabiiy gaz sarfi bo'yicha ma'lumotlarni masofadan olish imkoniyatini beruvchi gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan (TGHNAT-ASKUG) tizimiga ulangan hisoblash priborlari iste'molchi tomonidan o'rnatilish.
- 7.4. Iste'molchi Etkazib beruvchidan quyidagilarni talab qilish huquqiga ega:
- etkazib berilgan tabiiy gazning aniqlangan hajmiga va boshqa parametrlarga norozi bo'lgan taqdirda, Etkazib beruvchining tabiiy gazni iste'molini hisobga olish priborlari ishlashining ishonchligini tekshirish uchun komissiya tashkil etish;
 - Tabiiy gazning standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarda ko'zda tutilgan sifada va etkazib berish rejimiga rioya qilgan holda uzatilishi;
 - Tabiiy gazni etkazib berish shartnomasi bekor qilinganda, foydalanilmagan gaz hajmi uchun to'langan summani qaytarish;
 - Tabiiy gazni etkazib berish shartnomasini qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama bekor qilish;
 - Tabiiy gazni etkazib berish to'xtatilganda, zararni qoplashni talab qilish (shartnomaning 2.5. va 6.1. bandlari bundan mustasno);
 - Gaz etkazib berishni vaqtincha to'xtatishni
- Iste'molchi konunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin

VIII. TARAFLARNING MODDIY JAVOBGARLIGI

8.1 Yetkazib beruvchi iste'molchiga gaz etkazib berish shartnomasiga asosan gaz etkazib berilmagan yoki to'liq etkazib berilmaganligi oqibatida etkazilgan moddiy zarar va boy berilgan foydani belgilangan tartibda qoplaydi.

Yetkazib beruvchi gazni etkazib bermaganlik yoki to'liq etkazib bermaganlik uchun quyidagi hollarda javobgar hisoblanmaydi:

a) Iste'molchi tomonidan gaz ta'minoti tarmoqlariga qo'shimcha gazdan foydalanish uskunasi ruxsatsiz ulash holati aniqlanganda,

b) foydalanilgan gaz uchun to'lov amalga oshirilmaganda;

v) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda

g) iste'molchi tomonidan shartnoma talablarga amal qilinmaganida,

d) mazkur shartnomaning 2.5. va 6.1. bandlarida ko'rsatilgan hollarda.

8.2. Yetkazib beruvchi tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarilmasligi natijasida iste'molchiga moddiy zarar etkazilganda, Etkazib beruvchining mansabdor shaxsiga nisbatan bazaviy hisoblash miqdoring o'n barobaridan o'n besh baravari miqdorida jarima qo'llanadi.

8.3. SHartnomada ko'rsatilgan hajmdan kam hajmda gaz etkazib berilgan taqdirda, Etkazib beruvchiga nisbatan O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni asosida jarima sanksiyalari qo'llaniladi, quyidagi holatlar bundan mustasno:

a) fors-major holatlar;

b) magistral gaz quvurlarida va gaz tarmoqlarida avariya holatlari yuz berganda,

v) qish davrida vaqtincha gaz etkazib berish cheklanganida (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari qarorlari bilan tasdiqlangan gaz etkazib berish tarmog'idan uzib qo'yilmaydigan ob'ektlar ro'yxatiga kiritilgan korxonalaridan tashqari);

g) Shartnoma asosida Iste'molchi tomonidan o'z zimmasiga olingan majburiyatlar bajarilmaganda.

8.4. Yetkazib berilgan tabiiy gazning sifati shartnoma yoki normativ hujjatlar talablariga mos kelmaganda, Iste'molchi gaz qabul qilish yoki uning uchun haq to'lashni rad etganda Etkazib beruvchidan etkazib berilgan sifati zarur darajada bo'lmagan gaz hajmi qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'lashni talab qilish huquqiga ega. Agar, gaz qiymati to'langan bo'lsa, Iste'molchi Etkazib beruvchidan belgilangan tartibda to'langan summani qaytarishni talab qilish huquqiga ega.

8.5. Yetkazib beruvchi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan hajmlardan kam gaz etkazib berilganda, Yetkazib beruvchi Iste'molchiga muddati o'tgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan summasining 0,5 foizi miqdorida, biroq etkazib berilmagan gaz qiymatining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

8.6. SHartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda etkazib berilgan gaz haqi o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, Iste'molchi muddati o'tgan har bir kun uchun muddati o'tganto'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

IX. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

9.1. Ushbu shartnomaning har bir taraflari bir-biriga nisbatan amaldagi korrupsiya qarshi kurash talablari, shu jumladan, bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi qonun va qoidalarga oid shartlarni va talablarni tadbiiq etilishini ifodalaydi va kafolatlaydi.

9.2. "Iste'molchi" "Etkazib beruvchi"ga mazkur shartnoma doirasida quyidagilarni kafolatlaydi va quyidagi majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi: SHartnomaning amal qilish muddati davomida u (shuningdek, uning xodimlari, direktorlari, agentlari va boshqa vakillari), iste'molchi manfaatlari uchun agent yoki vakil sifatida harakat qilib, "Etkazib beruvchi"ning korrupsiya qarshi amaldagi talablariga va O'zbekiston Respublikasining barcha qonun va qoidalariga qat'iy rioya qiladi.

X. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

10.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar qoidaga ko'ra, ularni sudgacha hal etish choralarni ko'radilar.

10.2. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalarni hal etish uchun taraflar belgilangan tartibda javobgar joylashgan joydagi tegishlisudga murojaat qilishga haqlidir.

10.3. SHartnoma shartlarini bir tomonlama rad etish va bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonunda belgilangan holatlar bundan mustasno.

XI. FORS-MAJOR HOLATLAR

11.1. Tomonlar:

a) tabiiy ofatlar;

b) magistrat gaz quvurlarida va gaz tarmoqlarida, gazni qayta ishlash korxonalari va gaz qazibchiqarish joylarida kutilmagan avariya vaziyatlari yuzaga kelganda, shuningdek engib bo'lmaz kuchlar tufayli sodir bo'lgan tabiiy ofatlar, xususan, sel, yomg'ir, suv toshqini, yong'in chiqishi, er qimirlashi, virus tarqalishi va pandemiya davrida hamda Hukumat qaroriga asosan taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish imkoni bo'lmay qolganda javobgarlikka jalb etilmasdan, gaz etkazib berishni to'xtatish, qisqartirish yoki munosablarni to'xtatish huquqiga ega bo'ladi.

11.2. Fors-major holatlar yuzaga kelgan taqdirda, taraflar har qanday aloqa vositasi yordamida bir-birini xabardor qilishi kerak.

11.3. Agar, ko'rsatilgan holatlar 90 kundan ortiq kun mobaynida saqlanib tursa, tomonlar muzokaralar yo'li bilan shartnomani kelgusida bajarish to'g'risidagi qaror qabul qiladilar.

XII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

12.1. Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda rasmiylashtirilishi hamda taraflar tomonidan imzolanishi kerak.

12.2. Byudjet tashkilotlari uchun shartnoma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevralidagi PQ-594-son qaroriga asosan G'aznachilik bo'limi tomonidan majburiy tartibda ro'yhatdan o'tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

12.3. Shartnoma 2022 yil 31 dekabrgacha bo'lgan muddatga tuzilgan. Shartnomaning muddati tugaganidan keyin, agar tomonlardan biri shartnomani bekor qilish to'g'risida talab bilan murojaat qilmagan bo'lsa, shartnoma keyingi yilga uzaytirilgan hisoblanadi.

Byudjet tashkilotlari uchun shartnoma bir yilga tuziladi, shartnomaning muddati tugaganidan keyin, agar tomonlardan biri shartnomani bekor qilish to'g'risidatalab bilan murojaat qilmagan bo'lsa, shartnoma keyingi yilga uzaytirilgan hisoblanadi. Byudjetdan mablag' oluvchilar har yili "2022" yil 31 dekabr sanasiga" amal qilishlari lozim.

12.4. Tomonlarning ushbu shartnoma bo'yicha da'volari da'vo qabul qilingan kundan boshlab 30 kun mobaynida ko'rib chiqiladi.

Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган. Хужжат коди: TZ03256463

XIII. YAKUNI.OVCHI QOIDALAR

13.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 18 iyundagi "Tabiiy gaz va elektr energiyasini sotish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi №6010-son Farmoni qabul qilinishi munosabati bilan Tabiiy gazni ulgurji iste'molchilarga etkazib berish jarayonida O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining (BYURO) barcha vakolatlari 2020 yilning 1-avgustiga qadar amalda bo'ladi.

13.2. Ushbu shartnoma tomonlarning har biri uchun ikki nusxada tuzilgan, ikkala nusxasiham bir hil yuridik kuchga ega.

XIV. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA MANZILI:

"YETKAZIB BERUVCHI" "Hududgazta'minot" AJ "Hududgaz Navoiy" gazta'minoti filiali	"ISTE'MOLCHI" Nurota tuman Madaniyat bo'limi
<p>Manzil: <u>Navoiy sh. M.Tarobiy ko'chasi</u></p> <p>Tel./faks: <u>78-770-24-75</u></p> <p>X/R: _____</p> <p>Bank nomi: «O'z sanoat qurulish bank» Rakat filiali</p> <p>MFO: <u>00435</u></p> <p>INN <u>306605769</u></p> <p>OKED: <u>35220</u></p> <p>X/R <u>22634000905113660365</u></p> <p>Rahbar: <u>M.A. Noimatov</u> (F.I.SH.)</p> <p>Imzosi: _____</p> <p>Muhr o'limi: _____</p> 	<p>(byudjet tashkilotlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar nomi)</p> <p>Pochta manzil: Nurota tuman Sh.Rashidov k</p> <p>OKPO kodi:</p> <p>OKED:93960</p> <p>Muloqot u-n telefoni:79-523-16-55</p> <p>G'az./h: 23402000300100001010</p> <p>Bank nomi: Markaziy bank</p> <p>MFO: 00014</p> <p>INN : 200031004</p> <p>sh h: 100022860122387082310056001</p> <p>h/r: _____</p> <p>Nurota tuman G'aznachilik bo'limi (g'aznachilik bo'linmasi nomi)</p> <p>Rahbar: A.H.Karimov (F.I.SH.)</p> <p>Imzosi: _____</p> <p>Muhr o'limi: _____</p> 

Yuridik maslahatchi xulosasi: _____

(F.I.SH.)

(imzo, muhr)

(sana)